

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



INFRATUZILMAVIY INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYA BOZORINING ROLI

Saydirasulov Laziz Alimovich

TDIU huzuridagi “O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti



Annotatsiya: Ushbu maqolada infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: Infratuzilmaviy investitsiya loyihalari, SDG (sustainable development goals – barqaror rivojlanish maqsadlari), islomiy infratuzilma loyihalari, islomiy moliyalashtirish turlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важность исламского финансового рынка в финансировании инфраструктурных инвестиционных проектов.

Ключевые слова: Инфраструктурные инвестиционные проекты, SDG(sustainable development goals-цели устойчивого развития, исламские инфраструктурные проекты, виды исламского финансирования.

Abstract: This article discusses the importance of the Islamic financial market in financing infrastructure investment projects.

Key words: Infrastructure investment projects, SDG (sustainable development goals, Islamic infrastructure projects, types of Islamic financing.

KIRISH

Global beqarorliklar va Yangi O’zbekistonning taraqqiyoti sharoitida davlat uchun strategik ahamiyatga ega investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini jalg qilish davlatning muhim siyosatlaridan biri hisoblanadi. Zero, hozirgi sharoitda global investitsiyalar oqimi “COVID-19” inqirozi sababli 2020-yilda 1,54 trln. AQSh dollarini tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 40 foizga qisqargan. Islom moliya tizimi So’nggi yillarda jahon bank-moliya tizimining muhim tarmog’i sifatida tanilib, yildan yilga yuqori ko’satkichlarga erishib o’z mavqeini mustahkamlab kelmoqda. Bu sharoitda xalqaro moliyaning islomiy moliya bozori sektori jadal rivojlanmoqda va hozirgi vaqtida ushbu sektor yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o’sib bormoqda. Islom moliya institutlari esa dunyo bo’ylab umumiy qiymati 3,9 trillion AQSh dollaridan ziyod aktivlarni boshqarmoqda. Islomiy moliya oqimlarining oshib borishi aksariyat mamlakatlardan islomiy moliya oqimlarini ham keng jalb qilishni nazarda tutuvchi oqilona investitsiya siyosati yuritish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishga erishish uchun yo’l xaritasi sifatida belgilangan 17 ta global maqsadlar to’plamini o’z ichiga olgan barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-sustainable development goals) ishlab chiqilgan. Bunda ham iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga doir moddalar bor ekanligi infratuzilma loyihalarining ahamiyatini benihoya katta ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy taraqqiyotni rag’batlantirish, ijtimoiy taraqqiyotni rag’batlantirish va barqaror o’sishni rag’batlantirishda islomiy infratuzilma loyihalarining roli katta ahamiyatga ega. Bu loyihalar islomiy moliya tamoyillariga asoslangan bo’lib, shariat tamoyillariga amal qilgan holda musulmonlar yashovchi mamlakatlar va jamoalarning infratuzilma ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Islom infratuzilma loyihalari ijtimoiy-iqtisodiy arxitekturasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o’ynaydigan transport, energetika, suv va kanalizatsiya, sog’liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy infratuzilma kabi keng sohalarni qamrab oladi.

Islomiy infratuzilma loyihalari ish o’rnlari yaratish, samaradorlikni oshirish, mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy rivojlanish katalizatori bo’lib xizmat qiladi. Bu, o’z navbatida, iqtisodiy o’sishni, innovatsiyalarni rag’batlantiradi va tadbirkorlikni rivojlanadiradi, pirovardida jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo’shadi.



Joriy yilning 26–28-aprelida mamlakatimiz rahbarini islom taraqqiyoti banki rahbari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bunda yangi o'rta muddatli sheriklik dasturi doirasida Bank guruhi bilan keng ko'lamlı hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Bugungi kunda qo'shma loyihalar portfeli iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qamrab olgan holda 1,3 milliard dollardan oshgani mammuniyat bilan qayd etildi. Mazkur tashkil etilgan forum doirasida qishloq va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta'limni rivojlanтиrish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan umumiy qiymati 400 million dollarlik bitimlar imzolandi. Uchrashuvda amaliy hamkorlikni rivojlanтиrish, tadbirdorlik va xususiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy vositalarni takomillashtirish, bank tuzilmalarini loyiha ishlariga faol jalb qilish borasida aniq loyihalarni ilgari surish, shuningdek, mamlakatimizning JSTga qo'shilishi va innovatsion ekotizimni yaratish masalalarida texnik ko'makni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. [16]

Shunday ekan, hozirda o'zining likvid aktivlari bilan barqaror rivojlanib kelayotgan islom moliya bozorining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va u bozordan mamlakatimiz infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi bir moliyaviy instrument sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda islom moliyasiga va ayniqa yirik investitsion loyihalarni islomi moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilayapti. Bu borada xorijiy va mahalliy ko'plab olimlar turli xil tadqiqotlar olib borishayapti. Islom moliya bozorining likvidligi esa bu kabi tadqiqotlarning amalga oshirilishiga eng asosiy omillardan biridir.

Jumladan, Xon^[1] elektr stansiyalari loyihalarinini moliyalashtirish bo'yicha muqobil islomi tuzilmani taklif qildi. U g'arbiy loyihalarni moliyalashtirish modellarini islomi moliya tamoyillari asosida tahlil qilib, g'arb modeli bilan qanday modifikatsiya qilish orqali integratsiyalashgan islomi loyihalash modelini taklif qildi. Islom shariati moliyaviy innovatsiyalar va shartnomaviy kelishuvlarga model yaratishga ruxsat beradi. Integratsiyalashgan model yordamida islom va g'arb moliyachilarasi ishlay oladigan tuzilma ishlab chiqilishi mumkin. Bunday infratuzilma loyihalarida ishtirok etishda asosiy e'tibor islomi moliyaviy tamoyillar yoki moliyaviy manfaatlarga putur yetkazilmasligi shart qilinadi.

Uilson^[2] xususiy sektor korxonalari infratuzilma loyihalarida ko'proq ishtirok etayotganini aniqladi, chunki hukumatlar yirik loyihalarni kamdan kam moliyalashtiradi.

Istisna sxemasi doirasida foizlar kamaytirilganda loyihalarni moliyalashtirish mumkinligi isbotlangan. Zarqa^[3] ta'kidlaganidek, istisna ochiq daromad keltiruvchi davlat infratuzilmasi loyihalarida ham, daromad keltirmaydigan loyihalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Ibrohim^[4] mudarabaga asoslangan qimmatli qog'ozlarni sintez qilishga ko'proq yo'naltirilgan islom va g'arb loyihalarini moliyalashtirishning integratsiyalashgan modelini taklif qildi. Mudoraba qimmatli qog'oz murabaha va koll opson instrumentlarining kombinatsiyasıdir. Ushbu yondashuvda foydani taqsimlash nisbatini endogen tarza olish uchun metodologiya taklif qilindi. Matematik hosiladan foydalanib, Ibrohim mudaraba sxemasidagi qo'shimcha to'lov larga qarshi loyihaning kelajakdag'i qiymatini sintez qildi. Biroq tadqiqot faqat an'anaviy bankir nuqtayı nazaridan islomi loyihalarni moliyalashtirish vositalarini talqin qildi va modellashtirdi.

Quvaytdagi "Equate Petrochemical" loyihasida islom va g'arb moliyalashtirishning kombinatsiyasi bo'lgan birgalikda moliyalashtirilgan tuzilma muvaffaqiyatli amalga oshirildi^[5]. Loyihada ijara, istisna va murobaha tuzilmalaridan foydalanilgan. Shundan buyon Kuala-Lumpur temir yo'l tranziti 2 loyihasi, Birlashgan Arab Amirliklaridagi "Thuraya Space" telekommunikatsiya loyihasi, Quvaytdagi "Shuaiba" elektr stansiyasi loyihasi, Turkiyadagi Tarsus-Adana-Gaziantep va Mersin avtomobil yo'llari kabi infratuzilma loyihalarida yana bir qancha birgalikda moliyalashtirilgan kelishuvlar amalga oshirildi. Biroq birgalikda moliyalashtirilgan tuzilmalardan foydalangan loyihalar soni unchalik katta emas. Manfaatdor tomonlarning islomi moliya haqidagi tushunchalarini yaxshilash kabi hali ham e'tiborga olinishi kerak bo'lgan omillar mavjud.

Millen o'z tadqiqotlarida shariatga muvofiq garov qimmatli qog'ozlari va loyihalarni moliyalashtirish tuzilmalari loyihani moliyalashtirishda ijro etuvchi subyektlar va paradigmalar mavjudligining muhim omili sifatida tavsiflangan. Millen^[6] ta'kidlaganidek, bu jarayonda shariat kengashi har bir bitim madaniy, axloqiy, axloqiy va diniy tamoyillarni tan olishini ta'minlash uchun islom sarmoyasini tasdiqlash uchun investitsiya tuzilishi va hujjalarni o'rganadi.

Kamacho^[7] islomi loyihalarni moliyalashtirishni o'z ichiga olgan bir nechta infratuzilma loyihalarini o'rganish asosida, infratuzilma loyihalarida kapital olishning innovatsion usullari islom va g'arb moliyasini birlashtirish, moliyalashtirishning yangi tuzilmalarini yaratish yoki riskni kamaytirishning boshqa usullarini topish kabilarni o'z ichiga oladi degan xulosaga keldi. Kamacho, shuningdek, islom loyihalarini moliyalashtirishning moliyaviy xarajatlarini oshirishi mumkin bo'lgan institutsional muammolar mavjudligini ta'kidladi. Shu sababli, Kamacho sxemada adl (ishonchli shaxs), yagona islom moliya organi va yaxshi o'rnatilgan buxgalteriya amaliyotidan foydalanishni tavsiya qildi.

Hassan va Sumare^[8] o'z tadqiqotlarida foya ulushi yuqori va homiyning o'z kapitali katta bo'lsa, davlat kafolatlari kamroq zarur. Biroq, kredit qobiliyatini oshirish va loyihaning qarz qobiliyatini oshirish uchun davlat moliyaviy kafolatlari hali ham zarur deb ta'kidlaydi.



Millen^[9] olib boshqa bir maqolasida loyihaviy moliyalashtirish va islomiy moliyalashtirish bir-biriga yaqinlashar ekan, sanoat, ko'chmas mulk va infratuzilma loyihalariga katta miqdorda sarmoya kiritilmoqda. Ushbu yaqinlashuv islomiy moliyalashtirish tuzilmalarini loyihaning barcha ishtirokchilari uchun bevosita va uzoq muddatli natijalarga olib keladi degan xulosaga keladi.

Aleksandr^[10] o'z taddiqotida islom sxemasi bo'lgan loyihalar g'arb moliyasiga moslashishga harakat qilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar manbalarini tushuntiradi. Birinchidan, bu nuqtayi nazaridan shariat kengashi bo'lgan yaxlit tartibga solish organi yo'q. Shariat kengashlarining qarorlari bo'yicha noaniqlik mavjud bo'lib, ular ba'zida oldindan aytib bo'lmaydigan va subyektiv deb hisoblaydi. Kengash shunga o'xshash bitimlarni ko'rib chiqsa-da, qaror bir xil bo'lismiga kafolat yo'q. Buning sababi shundaki, fatvo faqat bitta aniq holat uchun amal qiladi. Shu sababli shariat kengashlari ham loyihani ma'qullashda eng muhim qaror qabul qilish rolini o'ynaydi. Ikkinchidan, qarz beruvchining shariatga muvofiqligi talabi g'arb kreditorlari nuqtayi nazaridan riskning kuchayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan loyiha xavfini o'z zimmasiga olishi kerak degan fikrni aytadi.

Grimsey va Lyuis^[11] olib borgan tadqiqot ishlarda, investitsiyalar sifatida qaraladigan infratuzilma loyihalar daromad keltirishi mumkin, ularni loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashida aniqlash va tahlil qilish mumkin. O'zing foyda va zararni taqsimlash sxemasi sifatida islomiy moliyalashtirish infratuzilma loyihalarida amalga oshirish uchun mos keladi. Yo'qotishlarni aniqlash uchun loyiha riskini aniqlash kerak va keyin xavfni kamaytirish yoki tarqatish kerak. Ko'pgina infratuzilma loyihalar risklari moliyalashtirish, soliqqa tortish, hujjatlar yoki texnik tafsilotlarning murakkabligidan kelib chiqadi. Loyiha ishtirokchilari nuqtayi nazaridan, davlat va xususiy investitsiyalar asosiy hisoblanadi. Loyihani moliyalashtirish amalga oshirilishi uchun u ishonchli, uzoq muddatli daromad oqimini aniqlash mumkin bo'lsagina amalga oshishi mumkin. Shu sababli infratuzilma loyihasi doirasida daromad va bozor bilan bog'liq risklar past yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin.

Shuningdek mahalliy olimlaridzan J. Imamnazarov^[12], S. Abrorov^[13], A. Tursunov^[14] va R. Zayniddinovlarning^[15] ilmiy ishlarda ham investitsion faoliyatga oid nazariy qarashlar o'z ifodasini topgan. Biroq, aynan infratuzilma investitsiyalarini islomiy moliyalashtirish mexanizmi yetarli ilmiy tadqiq qilinmagan. Bu esa tadqiqot mavzusining bugungi kundagi dolzarbligini ifoda qilib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tadqiqotning dialektik usuli, tizimli va jarayonli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda ilmiy abstraksiya, sintez, guruhlash va taqqoslash, moliyaviy tahlil kabi tadqiqot usullaridan hamda rasmiy mahalliy va xorijiy axborot bazalaridan foydalilanigan. Yuqorida bayon qilingan infratuzilmaviy investitsiya loyihalarining moliyalashtirishda islom moliya bozorining roliga baho berish uchun chet el tajribasini o'rganish, uning ilg'or va istiqbolli yutuqlarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarining moliyalashtirishda islom moliya bozorining ahamiyati benihoya katta. Buni islom moliya bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish orqali ko'rib chiqishimiz mumkin.



1-rasm: Jahon islom moliyasi aktivlari dinamikasi (mlrd. AQSh dollarida)¹


Yuqorida keltirilgan 1-rasmida jahonda islom moliya aktivlarining o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va global beqarorliklar kuzatilgan "COVID-19" davrlarida ham islom moliya

¹ Manba: ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022




aktivlarining o'sish holati kuzatilgan. Shuningdek, 2026-yilga borib uning hajmi 5,9 trln. AQSh dollariga yetishi taxmin qilingan.

Jahon islom moliyasi aktivlarini segmentlar bo'yicha 5 ta guruhga ajratib o'rganishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm: Islom moliya bozori segmentlari²


Islom moliya bozorida islomiy banklar yetakchi o'rinni egallaydi. Sukuk esa islomiy qimmatli qog'oz bo'lib uning hajmi ham yildan-yilga o'sib borayapti. Islomiy fond, takaful (islomiy sug'urta) va boshqa islomiy moliya institutlari islom moliya bozori segmentlari tarkibida kichik hajmga ega.



3-rasm: Islom moliya aktivlarining segmentlari bo'yicha dinamikasi (2021-yil holatiga mlrd. AQSh dollarida)³

Yuqoridaq 3-rasmdan kelib chiqib xulosa qilsak, islom moliya bozorida 2021-yil yakunlariga kelib islomiy banklar aktivlari qariyb 2,8 trl. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa islom moliya bozorida islomiy banklarning ta'siri yuqori ekanligidan, hamda likvid aktivlari hajmining ko'pligidan dalolat beradi.

2021-yil yakunlariga ko'ra TOP-10 mamlakatlar kesimida islom moliya aktivlarining ulushlarini ko'rib tahlil qilib chiqsak, unda Eron, Saudiya Arabistonni va Malayziya davlatlarini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm: Islom moliya aktivlarining TOP-10 mamlakatlar bo'yicha dinamikasi (2021-yil holatiga mlrd. AQSh dollarida)⁴

2 Manba: ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022

3 Manba: ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022

4 Manba: ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022



So'nggi yillarda bir qator mamlakatlar strategik rivojlanish dasturi doirasida "yo'l xaritasi" ni ishlab chiqishgan. Jumladan, Saudiya Arabistonida 2030-yilgacha moliya sektorini rivojlantirish dasturi, Malayziyada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan moliya sektori rejası, Indoneziyada 2020–2025-yillarda islomiy bankni rivojlantirish xaritalarini keltirib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, Qozog'istonda ham 2020–2025 islom moliyasini rivoj-lantirish bo'yicha reja ishlab chiqilgan. Unda 2025-yilga borib jami islomiy aktivlardagi ulushini 3–5% ga yetkazish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda islom moliya bozoridan jalb qilinayotgan investitsiyalar asosan Islom taraqqiyot banki guruhi bilan cheklangan. 2022-yil 30-iyun holatiga ko'ra, 1,790. 70 mln. AQSh dollaridan ortiq moliyaviy shartnomalar imzolanib, kuchga kirgan va ular bo'yicha 1. 3 mlrd. AQSh dollaridan ortiq mablag'lar moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

1-jadval: ITB tomonidan O'zbekiston Respublikasiga ajratilgan mablag'lar miqdori, yo'nalishlar kesimida⁵

Nº	Yo'nalish/ tarmoq nomi	Loyihalar soni	Jami ajratilgan mablag'lar hajmi (mln AQSh dollarida) 30. 06. 2022-y. holatiga
1	Qishloq xo'jaligi	9	702. 4
2	Moliya	54	653. 5
3	Sog'liqni saqlash	15	413. 2
4	Transport	4	348. 1
5	Energetika	5	203. 1
6	Suv, Sanitariya, shahar xizmatlari (Urban Services)	3	93. 1
7	Ta'lim	11	78. 4
8	Sanoat/ Yer osti boyliklari qazib chiqarish	9	59. 9
9	Boshqa	5	51. 0
10	Informatsiya va kommunikatsiya	1	0. 1
Jami:		116	2,602. 8

XULOSA

Mamlakatimizga islomiy investitsiya loyihalarini jalb qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sen Farmoni, "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 6-iyuldagı PF–165-sen Farmoni, "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 6-iyuldagı PQ–307-sen Qarori, "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 5-martdagı PQ–4224-sen Qarori, "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 1-avgustdagı PF–5495-sen Farmoni, "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 28-dekabrdagi PQ–459-sen Qarori, "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakkantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-yanvardagi PQ–16-sen Qarori, 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ–598-sen O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonuni hamda bu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda islomiy investitsiya loyihalari hajmini oshirish uchun islom moliya bozori instrumentlariga asoslangan islomiy moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilishi asnosida ushbu masalaning nazariy-metodologik va amaliy yechimiga erishish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bu esa O'zbekiston moliya bozoriga islom moliya bozorida faoliyat yuritayotgan islomiy moliya muassasalari aktivlaridan samaralari foydalanish yuzasidan ilmiy va amaliy ishlar olib borish kerakligini o'zida ifodalaydi.

⁵ J. Imannazarovning "Islom moliya tizimi imkoniyatlardan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi avtoreferati. T. 22.02.2023-y.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Khan, M. H. (1997). Designing an Islamic model for project finance. *International Financial Law Review*, 16(6), 13.
2. Wilson, R. (1998). Islamic project finance and private funding schemes. *IIUM Journal of Economics and Management*, 5(1), 41–60
3. Zarqa, M. A. (1997). Istisna' financing of infrastructure projects. *Islamic Economic Studies*, 4(2), 69–70.
4. Ebrahim, M. S. (1999). Integrating Islamic and conventional project finance. [DOI:10. 1002/tie. 4270410416]. *Thunderbird International Business Review*, 41(4–5), 583–609
5. Esty, B. C. (1999). Petrozuata: A case study of the effective use of project finance. [DOI:10. 1111/j. 1745-6622. 1999. tb00028. x]. *Journal of Applied Corporate Finance*, 12(3), 26–42
6. McMillen, M. J. T. (2001). Islamic shari'ah-compliant project finance: Collateral security and financing structure case studies. *Fordham International Law Journal*, 24(4), 1184–1264
7. Camacho, J. (2005). Islamic financing for large Infrastructure projects. Retrieved from <http://people.hbs.edu/mdesai/IFM05/Camacho.pdf>
8. Hassan, M. K., & Soumaré, I. (2006, 16 – 18 December). Financial guarantee as an innovation tool in Islamic project finance. In ERF 13th Annual Conference (pp. 8–11)
9. McMillen, M. J. T. (2007). Shariah-compliant project finance: An overview, including structures. *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*.
10. Alexander, A. J. (2011). Shifting title and risk: Islamic project finance with western partners. *Michigan Journal of International Law*, 32(3), 571–612
11. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2002). Evaluating the risks of public private partnerships for infrastructure projects. [DOI: 10. 1016/s0263-7863(00)00040-5]. *International Journal of Project Management*, 20(2), 107–118.
12. J. Imannazarovning "Islom moliya tizimi imkoniyatlardan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi avtoreferati. T. 22. 02. 2023y.
13. S. Abrorovning "O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari" mavzusidagi dissertatsiyasi, T. 2020y
14. A. Tursunovning "Islomiy mikromoliyalashda vaqf xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo'llari" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, T. 2023y
15. "O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi: to'siqlar va tavsiyalar", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali, 2/2022-mart-aprel (№00058) DOI: 10. 55439/EIT/vol10_iss2/a4
16. <https://www.isdb.org/>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

